

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI JAMOATCHILIK
KENGASHI

“Soliq ma’muriyatchiligining raqamli texnologiyalari”
Ishchi guruhi

“TOVARLAR (MAHSULOTLAR, XIZMATLAR)NING
IDENTIFIKATSIYA KODLARI: MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR”
mavzusi bo‘yicha
AQLIY HUJUM

Общественный совет при ЦИК

Tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar)ning identifikatsiya kodlari: muammolar va yechimlar
2022-yil 13-avgustdagi “aqliy hujum” natijalari bo‘yicha MХIK reestrini rivojlantirish bo‘yicha takliflar

T/r	Muammoning ta'rifi	Ehtimoliy yechim
I. MХIK reestrini yaratish va rivojlantirishning konseptual va uslubiy kamchiliklari		
1.1	<p>Jamiyatda MХIK reestrini joriy etishning maqsadi va vazifalari hamda uning soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish kontekstidagi ahamiyati bo'yicha tushuncha mavjud emas (EHA, onlayn-NKM tizimlari, E-AKTIV va hokazo).</p> <p>Soliq to'lovchilar va yakuniy iste'molchilar MХIK bilan ishlashda ancha miqdorda moliyaviy va ma'muriy xarajatlarni amalga oshiradilar, bunda MХIK kodlari qanday foyda keltirishi va ularning qiymati nimada ekanligi to'g'risida ma'lumotga ega emaslar.</p>	<p>Quyidagilarni ko'rgazmali shaklda namoyish qiladigan axborot-ma'rifiy materiallar turkumini ishlab chiqish:</p> <ul style="list-style-type: none">• MХIKni davlat tomonidan tartibga solish, soliq ma'muriyatchiligi, iqtisodiyotni raqamlashtirish kontekstida qanday vazifalarni hal qilishi;• MХIK kodlaridan foydalanishda soliq to'lovchi va yakuniy iste'molchi qanday imkoniyatlar, opsiyalar, servislarni olishi;• MХIK kodlaridan amaliy foydalanishga misollar (MХIKning davlat, tadbirkorlar, fuqarolar uchun foydasini namoyish qiluvchi keyslar). <p>Axborot materiallarini taqdim etishning turli shakllaridan foydalanish: video, audio, taqdimotlar, grafikalar, sxemalar, matnlar, interaktiv instrumentlar.</p>
1.2	<p>MХIK reestrini shakllantirish uslubiyatini o'zgartirish va u yoki boshqa tovar va xizmatlarga berilgan MХIK kodlarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish soliq to'lovchilar va professional hamjamiyatda keskinlikni keltirib chiqaradi.</p>	<p>1. Ma'lumotlarni boshqa ma'lumotlar bazalaridan import qilish va ma'lumotni texnik vositalarga eksport qilish imkoniyati uchun MХIK reestrining GS1 standartlariga (eng keng tarqalgan va ishlab chiqaruvchilar tomonidan faol foydalaniladigan sifatida) mosligini ta'minlash.</p> <p>2. Soha (konsalting, biznes-tahlil, soliq ma'muriyatchiligi) tashkilotlarini yuzaga kelgan</p>

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>Tovar va xizmatlarning u yoki boshqa turlari to‘g‘risida ko‘proq bilimga ega bo‘lgan soha tashkilotlari, vazirliklari va idoralarining yetarlicha jalb qilinmaganligi qayd etilmoqda.</p>	<p>vaziyatni tahlil qilish va MXIK reestrini yanada rivojlantirish va ma’muriyatchiligi konsepsiyasini ishlab chiqish, MXIK reestrini rivojlantirish qoidalari, uslubiyati va harakatlar rejasini (“yo‘l xaritasi”) tayyorlashga jalb qilish.</p> <p>3. Soha (tarmoq) hokimiyat organlari, tashkilotlari va muassasalarini, ularning mutaxassislarini MXIK reestrini ishlab chiqishga jalb qilish, ularni tovarlar va xizmatlar ma’lumotnomalari bilan integratsiya qilishni ta’minlash.</p> <p>4. MXIK reestri, uning grafalari, ustunlari va undagi ma’lumotlarni standartlashtirish va maqbullashtirish. Mazkur ishlarda manfaatdor idoralar va vazirliklar, shuningdek TXKM/EHA mutaxassislari, tadbirkorlar bilan kelishish.</p> <p>5. DSQning soliq ma’muriyatchiligiga ehtiyojini hisobga oluvchi tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar)ni tasniflashning cheklangan (quyi) darajasini aniqlash.</p> <p>6. MXIK reestri to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash va unda quyidagilarni nazarda tutish:</p> <ul style="list-style-type: none"> ● DSQ, IAM, TXKM, EHA, tadbirkorlarning huquq va majburiyatlari; ● DSQ, IAM, TXKM, EHA, tadbirkorlarning o‘zaro hamkorligi tartibi; ● tarmoq, tovar, hududiy o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda MXIK kodlarini berish (o‘zgartirish, o‘chirib tashlash) qoidalari va uslubiyati.
1.3	<p>Hozirgi vaqtda reestr inventarlanmoqda, ilgari berilgan MXIK kodlari tahrir qilinmoqda, to‘ldirilmoqda, o‘chirib tashlanmoqda. Natijada O‘zbekiston bozorida muomalaga ega bo‘lgan</p>	<p>Quyidagi mexanizmlarni nazarda tutuvchi MXIK kodlarini berish (o‘zgartirish, o‘chirib tashlash) reglamentini ishlab chiqish:</p> <ul style="list-style-type: none"> ● ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar, soha (tarmoq) tashkilotlari ishtirokida

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar)ning to‘liq katalogi shakllantirilmogda.</p> <p>Lekin quyidagilar mavjud emas:</p> <ul style="list-style-type: none"> ● МХИК реестри ма’lumotnomalari va klassifikatorlarini qayta ko‘rib chiqish reglamenti (tartibi); ● МХИК kodlarini inventarlash jarayonlari va tadbirkorlarning yangi tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar)ga МХИК berish to‘g‘risidagi arizalarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining kelishilganligi. <p>Natijada, tadbirkorlarga berilgan va foydalanilayotgan МХИК kodlari o‘zgartirilishi yoki МХИК reestrída paydo bo‘lgandan keyin bir necha kun o‘tgach deaktivizatsiya bo‘lishi mumkin.</p>	<p>tovarlarni tasniflash va МХИК kodlarini berish uslubiyatini ishlab chiqish;</p> <ul style="list-style-type: none"> ● DSQning soliq ma’uriyatchiligiga ehtiyojini hisobga oluvchi tarmoqlar, faoliyat sohalari, mahsulotlarning o‘ziga xosligi kesimida МХИК reestrini tasniflashning cheklangan (quyi) darajasini o‘rnatish; ● ilgari berilgan МХИК kodlarini minimal darajada qayta ko‘rib chiqish asosida (МХИК kodlarini faqat istisno hollarda ko‘rib chiqish) МХИК reestrini kengaytirish; ● cheklangan miqdorda tadbirkorlarning ishtiroki bilan yangi МХИК kodlarini aprobatsiya qilish (tajriba tariqasida foydalanish); ● yangi МХИК kodlari joriy qilinadigan aniq sanani ko‘rsatgan holda yangi МХИК kodlarini joriy etish to‘g‘risida buyruq (axborot xati)ni chiqarish va e‘lon qilish; ● soliq to‘lovchilar yangi МХИК kodlaridan foydalanishga o‘tishlari kerak bo‘lgan minimal o‘tish davri; ● o‘chirilgan МХИК kodlaridan foydalanish qoidalarini belgilash (agar tovarni sotishda (jo‘natishda) МХИК kodi amalda bo‘lgan, keyingi operatsiyani bajarish (qaytarish, bo‘nak, kredit, uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha boshqa shartnoma majburiyatlari) paytida esa МХИК kodi o‘chirilgan bo‘lsa, tadbirkor qanday yo‘l tutishi kerak); ● МХИК kodlari muomalasining barcha ishtirokchilariga reliz tarqatish, relizni tasnif.soliq.uz saytida, DSQning telegramm-kanallarida, TXKM, EHA operatorlari saytlarida e‘lon qilish; ● tadbirkorlarni МХИК kodlarining o‘zgartirilganligi to‘g‘risida sms yuborish va Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor qilish, TXKM/EHA saytlarida xabardor qilish; ● mazkur o‘zgartirishlar daxl qiladigan tadbirkorlarga МХИК kodlari o‘zgartirilganligi to‘g‘risida xabarni manzilli tarqatadigan telegramm-bot yaratish.

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
1.4	<p>МХИК реестри ва уни shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda hududlardagi tovarlar / faoliyat turlari / ning o‘ziga xos xususiyatlari har doim ham hisobga olinmayapti:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tovarlar va xizmatlarning yangi turlarining paydo bo‘lishi; • ayrim faoliyat turlarining o‘ziga xos xususiyatlari (umumiy ovqatlanish, savdo); • hududiy xususiyatlar. 	<p>O‘zaro hamkorlikni kengaytirish va tovarlar / faoliyat turlari / bo‘yicha hududiy bozorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi МХИК kodlarini berish uslubiyatlarini ishlab chiqish uchun soha (tarmoq) hokimiyat organlari, tashkilotlari va muassasalarining mutaxassislarini jalb qilish.</p>
1.5	<p>Davlat tilidagi (o‘zbek) МХИК reestri kirill yozuvidan foydalanilgan holda yuritilmoqda, bu, ayniqsa hududlarda, muayyan murakkabliklar tug‘dirmoqda.</p>	<p>1. Davlat tilidagi (o‘zbek) МХИК reestrining lotin yozuvidan foydalanilgan holda yuritilishini ta’minlash.</p> <p>2. Qidirish va МХИК kodlarini aks ettirish servislarini maromiga yetkazib qayta ishlash: ma’lumotni har qanday tilda (rus, o‘zbek tili va hokazo) qidirish va МХИК kodlari to‘g‘risidagi ma’lumotni davlat tilida (o‘zbek) chiqarish.</p>
<p>II. Soliq to‘lovchilarda МХИК kodlaridan foydalanishda muammolar va murakkabliklar</p>		
2.1	<p>1. МХИК kodlari bilan ishlaydigan va ularni tushunadigan buxgalterlarning yuqori darajada ish bilan bandligi (katta bo‘lmagan tashkilotlarda faqat bitta shtatdagi buxgalter ishlaydi, u kasal bo‘lishi</p>	<p>1. Shunday qoida (talab) o‘rnatish, unga asosan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • МХИК kodlarini olish bo‘yicha majburiyat tovarlar ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar zimmasiga yuklatiladi;

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>yoki ta’tilga chiqishi mumkin, yakka tartibdagi tadbirkorlarda buxgalter odatda outsorsing asosida mehnat qiladi va oyda ikki marta keladi).</p> <p>2. Aniq tovar va xizmat uchun kerakli MXIK kodini qidirishning aniq va tushunarli mexanizmining mavjud emasligi.</p> <p>3. “To’satdan” MXIK kodlarini o’zgartirish vaziyatlari noaniqlikni keltirib chiqaradi: bekor qilingan MXIK kodi bo’yicha olingan tovarlar bilan operatsiyalarni (lizing, kredit, kontraktlar, qaytarish) qanday aks ettirish kerak. Agar tovar xaridorga eski MXIK bilan sotilgan bo’lib, yangi MXIKning amal qilish davrida qaytarilsa, qaytarishni qanday rasmiylashtirish kerak (sotilmagan tovar qaytarilayotgan bo’lib chiqadi).</p> <p>4. MXIK kodlarini qayta ko’rib chiqish (bekor qilish) to’g’risida tadbirkorlarni xabardor qilish mexanizmi mavjud emas.</p> <p>5. MXIK kodi to’g’ri kiritilishini nazorat qilish mexanizmi yo’q (nazorat raqami): MXIK kodlarini onlayn-NKM xotirasiga qo’lda kiritish xatolarga olib keladi (inson omili).</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Ulgurji-chakana savdo korxonalarini MXIK kodlarini ixtiyoriy asosda oladilar (MXIK kodiga ega bo’lmagan tovarlar bo’yicha); • Agar tegishli MXIK kodlari tadbirkor tomonidan kiruvchi hisobvara-fakturalar bo’yicha olingan bo’lsa, uzoq muddatli operatsiyalar doirasida bekor qilingan MXIK kodlaridan foydalanish imkoniyati; • Tovarning ulgurji xaridorining majburiyatiga taqdim etilgan hisobvara-fakturada ko’rsatilgan MXIK kodlarini u imzolangan qadar tekshirish vazifasini kiritish. <p>2. Elektron hisobvara-fakturalar tizimida MXIK grafalarini to’ldirish avtomatlashtirilgan, chiqib keladigan tavsiyada tasnif.soliq.uzdagi shaxsiy kabinetda yaratilgan “Tanlangan MXIK” ro’yxatidagi barcha kodlar taqdim etilgan.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Onlayn-NKM xotirasiga tovarlar nomenklaturasini kiritish jarayonini avtomatlashtirish tavsiya qilinadi. • Buning uchun Soliq to’lovchi shaxsiy kabinetining “Onlayn-NKM va virtual kassalar to’g’risida axborot” interaktiv xizmatining “Mening tovarlarim” ilovasi funksionalini takomillashtirish lozim: • unda ikkita bo’limni nazarda tutish: <ul style="list-style-type: none"> ○ MXIK kodlari bilan tovarlar (kiruvchi EHFdan), MXIK kodlari bilan yaratilgan qadoqlar, to’plamlar (va hokazo), MXIK kodlari bilan ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar ro’yxati (tasnif.soliq.uzdagi kabinetdan) va sotilgan tovar avtomatik tarzda hisobdan chiqariladigan ombor. ○ ombor bo’limidan kerakli tovarlarni olib o’tish yo’li bilan MXIK kodlari bilan tovarlar ro’yxatini shakllantirish imkoniyati bilan do’kon (fiskal

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>6. МХИК реестри ko‘p tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar) uchun tasniflashni (subpozitsiyani) nazarda tutmaydi.</p> <p>7. tasnif.soliq.uz servisi ishi sifatining past darajasi: yangi tovarlar uchun МХИК kodlarini berish uchun arizalar juda uzoq vaqt davomida ko‘rib chiqiladi.</p>	<p>modul), shuningdek bu yerda yaratilgan qadoqlar, to‘plamlar (va hokazo)ni МХИК bilan avtomatik tarzda qo‘shish (ilgari do‘konga berilgan tovarlar va xizmatlardan) (buning uchun shaxsiy kabinetda maxsus yaratilgan havoladan foydalanish) va ulgurji sotilgan tovarni avtomatik tarzda hisobdan chiqarish (xarajat EHF bo‘yicha) imkoniyatini nazarda tutish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • “do‘kon” bo‘limida onlayn-NKM xotirasiga tovarlar va xizmatlar ro‘yxatini ularga muvofiq МХИК kodlari bilan yuklash imkonini beradigan funkcionalli tugmani nazarda tutish; • onlayn-NKM uchun majburiy bo‘lgan barcha grafa va ustunlarning mavjudligini nazarda tutish, ularning formatlari va o‘lchamlarini standartlashtirish va maqbullashtirish. • bunda onlayn-NKM xotirasiga yangi ro‘yxatni (tovarlarning yangilangan ro‘yxatini) jo‘natishda onlayn-NKM xotirasida mavjud bo‘lgan eski ro‘yxat avtomatik tarzda o‘chirilishi kerak. • Tadbirkorlarning tovarlar nomenklaturasi va ularga muvofiq МХИК kodlariga aralashishining texnik imkoniyatini istisno qilish. <p>3. Mavjud МХИК kodlarini inventarlash jarayonini jadallashtirish va O‘zbekiston bozorida taqdim etilgan barcha tovarlar va xizmatlarni qamrab olish maqsadida МХИК reestrini kengaytirish.</p> <p>4. Quyidagilarni nazarda tutuvchi tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar)ga yangi МХИК kodlarini joriy etish qoidalarini tasdiqlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tasnif.soliq.uzda vakolatli organning tovarlar va xizmatlarning aniq guruhini ko‘rsatgan holda yangi МХИК kodlarini joriy etish to‘g‘risidagi buyrug‘ini chiqarish

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
		<p>va e’lon qilish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • yangi МХИК kodlarini joriy etishning tajriba davri davomida vakolatli organ yangi МХИК kodlarini aniqlash va berish uchun tegishli tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar bilan faol ish olib boradi. • tasnif.soliq.uz saytida МХИКning muayyan sanasidan boshlab yangi МХИК kodlarini joriy etish to’g’risidagi yakuniy relizni e’lon qilish. <p>5. Fuqarolik muomalasiga kiritilgan (tadbirkorlar aralashmagan holda) tovarlarga МХИК kodlarini saqlash yoki avtomatik tarzda almashtirishni nazarda tutuvchi yangi МХИК kodlarini joriy etish reglamentini tasdiqlash.</p> <p>6. Yangi МХИК kodlarini olish uchun tasnif.soliq.uz sayti ishini yaxshilash, bunda quyidagilarni nazarda tutish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • МХИК reestrining egasi arizani (shu jumladan onlayn arizani) ko’rib chiqishi shart bo’lgan muddat (muddat tovarlarni realizatsiya qilishga to’sqinlik qilmasligi uchun ancha qisqa bo’lishi kerak – ariza berilgan paytdan e’tiboran bir ish kuni mobaynida); • arizani ko’rib chiqish natijalari to’g’risida Soliq to’lovchining shaxsiy kabinetiga majburiy yozma javob. • agar so’rov rad etilsa, rad etish sababi aniq ko’rsatilishi kerak. • agar МХИК reestri egasi yangi МХИК kodini berishni rad etish to’g’risida qaror qabul qilsa, javobda bayon etilgan tovar (mahsulot, xizmat)ga qo’llanilishi lozim bo’lgan МХИК kodi aniq ko’rsatilgan bo’lishi kerak; • ariza bo’yicha qaror yuzasidan tezkor tarzda nizolashish imkoniyati; <p>Funksionalning ishlash qoidalari tasnif.soliq.uz saytida tegishli funksionalning yonida e’lon</p>

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
		qilinishi kerak.
2.2	<p>МХИК реестри uslubiyati tovarlar “to‘plamda” realizatsiya qilingan holatda (masalan, bayram aksiyalari doirasida) hamda o‘zi ishlab chiqargan tovarlar uchun harakatlar tartibini ta’riflab bermaydi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • misol uchun, sotuvchi gellar, balzamlar, soqol olish ustalarini alohida xarid qildi, ularni esa to‘plamda chegirma bilan realizatsiya qiladi; • supermarket un, tuz, yog‘ xarid qildi, tayyor non yoki pishiriqni esa sotadi. 	<p>tasnif.soliq.uzda yoki Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetida to‘plamlarni shakllantirish, xarid qilingan mahsulotlarni o‘zi qayta ishlash jarayonida olingan tovarlarga МХИК kodlarini berish imkonini beradigan funksionalni nazarda tutish.</p>
2.3	<p>МХИК реестри egasining (IAM mutaxassislari) qaytar aloqa sifatining yomonligi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • rasmiy manbalarda ular orqali МХИК kodlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha IAM mutaxassislardan maslahat olish mumkin bo‘lgan 5 ta telefon raqami e’lon qilingan; • lekin qaysidir telefon raqami orqali qo‘ng‘iroq qilib tushishning deyarli imkoni yo‘q – ko‘pincha telefon go‘shagini hech kim ko‘tarmaydi. • DSQ koll-markazining (1198) mutaxassislari ko‘pincha savolga javob bera olishmaydi va hech 	<p>Tadbirkorlar uchun mijozlarga doir servis sifatini oshirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • soliq to‘lovchi МХИК kodlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha sifatli maslahat va texnik ko‘mak olishi mumkin bo‘lgan maxsus koll-markazni shakllantirish (boshqa telefon raqamiga qayta yo‘naltirmasdan); • maxsus telegramm-bot va onlayn yordamchi – tasnif.soliq.uz saytida МХИК kodlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha maslahatchini ishlab chiqish.

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	kim go’shakni ko’tarmaydigan telefon raqamlariga qayta yo’naltiradilar.	
2.4	Tadbirkorlarning MXIK reestri ma’muri (IAM mutaxassislari) bilan MXIK kodlaridan foydalanish masalalari bo’yicha o’zaro hamkorligi qoidalari mavjud emas.	<p>Soliq to’lovchilar tomonidan MXIK kodlaridan foydalanish bo’yicha qoidalar va tavsiyalar to’plamini (“oq kitob”) tayyorlash va muntazam yangilab borish (aktuallashtirish), unda:</p> <ul style="list-style-type: none"> • MXIK kodlaridan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyatlar va soliq to’lovchilarga tavsiya qilinadigan harakatlarni aks ettirish; • MXIK reestri egasi, DSQ, TXKM, EHA mutaxassislari, soliq to’lovchilarning huquq va majburiyatlarini qayd etish; • barcha manfaatdor tomonlarning o’zaro hamkorligi tartibini aks ettirish; • tasnif.soliq.uz saytida qoidalar va tavsiyalar to’plamini e’lon qilish.
III. MXIK reestri bilan o’zaro hamkorlik qilish instrumentlaridan foydalanish		
3.1	<p>tasnif.soliq.uz saytidagi yetarlicha tushunarli va qulay bo’lmagan interfeys:</p> <ul style="list-style-type: none"> • MXIKni qidirishning 11 ta usuli va kerakli MXIK mavjud bo’lmagan taqdirda ariza berish imkoniyati nazarda tutilgan. • “Hurmatli tadbirkorlar!” blokida guruhlangan funksional ko’p hollarda aynan u MXIKni qidirish bilan bog’liq muammolarning 	<p>tasnif.soliq.uzdagi kabinetning interfeys va raqamli servislarini maromiga yetkazib qayta ishlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Interfeysni ishlab chiqishga saytlarni ishlab chiqish bilan shug’ullanadigan professional kompaniyalarni jalb qilish. Interfeysni professional buxgalterlar bilan muhokama qilishni o’tkazish. Interfeys maksimal darajada oddiy, tushunarli bo’lishi kerak, foydalanuvchi o’z vazifasining yechimini oson topishi kerak. • Foydalanuvchi saytga kirganda birinchi ko’rishi kerak bo’lgan narsa – bu unga qulay bo’lgan har qanday usul bilan MXIK kodini topish taklifi.

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>yechimi bo‘lsa-da, foydalanuvchining ko‘rish maydonidan tushib qoladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • “Elektron katalog” va “Klassifikator toifalari” bo‘limlari МХИК kodlarini qidirish instrumentlarining umumiy blokidan uzilgan va saytning pastki qismida “Yangiliklar” bo‘limi ostida joylashgan, bu ularni foydalanuvchilar uchun deyarli ko‘rinmaydigan qiladi; • portalning keyingi sahifalari ham juda chalkash va tushunarsiz interfeysga ega, unda nima qayerda joylashganligi va bu bilan qanday ishlashni tushunish murakkab. <p>Natijada, aksariyat foydalanuvchilar sekin va har doim ham samarali ishlamaydigan qidirish satri orqali topishga harakat qiladilar.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Ulgurji-chakana tarmoq buxgalterlarida portalga murojaat qilishga kamroq ehtiyojlari bo‘lishi uchun МХИК kodlarini qidirishni avtomatlashtirish servislarini ishlab chiqish (masalan, shtrix-kodi bo‘yicha). • Portal bilan ishlashda texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatini tashkil etish, shu jumladan saytning o‘zida yo‘riqnomani va saytda onlayn yordamchi – maslahatchini joylashtirish. • Yangi foydalanuvchilarni katta hajmdagi axborot bilan chalg‘itmaslik uchun yangiliklarni alohida bo‘limga ajratish va shu bilan ularga qidirishni osonlashtirish. • Boshlovchilar uchun intuitiv ravishda tushunarli interfeys bilan ayrim mavzuga doir sahifalarni (shu jumladan qidirish uchun) yaratish.
3.2	<p>Kerakli tovar (mahsulot, xizmat) uchun МХИК kodi mavjud bo‘lmagan taqdirda МХИК kodini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun arizani avtomatik tarzda shakllantirish imkonini beruvchi funksionalning mavjud emasligi.</p>	<p>tasnif.soliq.uzdagi kabinetning funksionalini maromiga yetkazib qayta ishlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • МХИК kodini qidirish natijalari bo‘yicha u mavjud bo‘lmagan taqdirda МХИК kodini olish uchun arizani avtomatik tarzda shakllantirish imkonini beruvchi funksionalni takomillashtirish (masalan, kerakli МХИК kodini qidirish uchun so‘rovnoma to‘ldirilgandan so‘ng); • Bunday yondashuv arizalarni ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ish hajmini qisqartirish imkonini beradi, sababi, so‘rovnomani to‘ldirish chog‘ida tadbirkor

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
		o‘z tovarini ta’riflaydi.
3.3	<p>Ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan MXIK kodlarini o‘zgartirish (qayta ko‘rib chiqish)da tasnif.soliq.uzdagi kabinetda “Tanlanganlar” bo‘limida MXIK kodlarini avtomatik tarzda yangilash (aktuallashtirish) mexanizmi mavjud emas</p>	<p>tasnif.soliq.uzdagi kabinetning funksionalini maromiga yetkazib qayta ishlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tasnif.soliq.uzdagi kabinetda va Soliq to‘lovchilarning shaxsiy kabinetida (soliq.uz saytida) “Onlayn-NKM va virtual kassalar to‘g‘risida axborot” interaktiv xizmatining “Mening tovarlarim” ilovasida MXIK katalogida ularning qiymati o‘zgarganda tanlangan MXIKlarni yangilash jarayonini avtomatlashtirish; • tadbirkorlarni MXIK kodlari almashganligi to‘g‘risida sms, telegramm va boshqa usullar orqali xabardor qilish funksiyasini sozlash. <p>Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetida (soliq.uz saytida) har kuni noto‘g‘ri MXIK kodlaridan foydalanganlik to‘g‘risida ma’lumotlar olish uchun telegram-botni mas’ul shaxsga tushunarli va qulay bog‘lash imkoniyatini qo‘shish (soliq to‘lovchining bazasida tezkor va aniq tuzatish uchun)</p>
3.4	<p>Omborda saqlanayotgan va do‘konda realizatsiya qilinayotgan tovarlarning yagona ro‘yxatini shakllantirish, keyinchalik onlayn-NKM xotirasiga yozish uchun ularni hisobvaraq-fakturalardan (kiruvchi va chiquvchi EHF) eksport va import qilish mexanizmi mavjud emas.</p> <p>O‘zi ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlarni, ombor hamda do‘konda shakllantirilgan to‘plamlar va</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. tasnif.soliq.uzdagi shaxsiy kabinetda kiruvchi hisobvaraq-fakturalar asosida Tanlangan MXIK kodlari ro‘yxatini shakllantirish funksionalini amalga oshirish zarur. 2. Soliq to‘lovchi shaxsiy kabinetining “Onlayn-NKM va virtual kassalar to‘g‘risida axborot” interaktiv xizmatining “Mening tovarlarim” ilovasi funksionalini takomillashtirish (2.1-bandga qarang). 3. “Mening tovarlarim va xizmatlarim” reestrini yuritish standartini ishlab chiqish, mazkur ilovada va uning ikkita bo‘limida onlayn-NKM ishi uchun zarur bo‘lgan barcha grafa va ustunlarning mavjudligini nazarda tutish, ularning formatlari va o‘lchamlarini

T/r	Muammoning ta'rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>qadoqlarni qo'shish mexanizmi mavjud emas.</p> <p>Omborda saqlanayotgan va do'konda realizatsiya qilinayotgan tovarlarning yagona ro'yxati rahbariyat va yuqori turuvchi tuzilmalar hamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan do'kon va tadbirkorning ishini to'xtatmasdan, uning xodimlarini chalg'itmasdan, masofadan turib inventarlashni o'tkazishga ham imkon berardi</p>	<p>standartlashtirish va maqbullashtirish.</p> <p>4. Tovarlar to'plamlari va komplektlari uchun MXIK kodlarini, shu jumladan bevosita onlayn-NKM xotirasida, ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatini nazarda tutish.</p> <p>5. “Tovarlar ma'lumotlar bazasini jo'natish” tugmasi bilan bir qatorda, shakllantirilgan ma'lumotlar bazasini onlayn-NKTga fleshka yordamida oflayn rejimda olib o'tish va unga kiritilgan oxirgi o'zgartirish sanasini qayd etish va solishtirish yo'li bilan onlayn-NKM bilan yagona ro'yxatning dolzarbligi bo'yicha ma'lumotlarni almashish (mazkur fiskal modul uchun) uchun faylni saqlash (json formatida) imkoniyatini nazarda tutish.</p>
3.5	<p>MXIK kodining reestr yozuvi EHF va onlayn cheklarda qo'llash uchun noqulay:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Reestr yozuvi uzun, onlayn-NKMga yuklashda ko'p keraksiz ma'lumotlarni saqlaydi va chekda to'liq chop etilmaydi. • MXIK kodini kiritishda tadbirkorlar onlayn-NKMda ajratilgan 63 ta belgi va EHFdagi 255 ta belgiga sig'ishi uchun tovarlarning qisqartirilgan nomlarini mustaqil ravishda shakllantirishlariga to'g'ri kelmoqda. • Qisqartirishda umumiy qoidalarining mavjud emasligi ayni bir tovar turli tadbirkorlar tomonidan turlicha belgilanishiga olib kelmoqda. 	<p>Quyidagilarni nazarda tutgan holda MXIK kodining reestr yozuvini shakllantirish algoritmini qayta ishlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • onlayn cheklar uchun tovarning maxsus (qisqartirilgan) (uzunligi 63 ta belgidan uzun emas) nomining mavjudligi; • hisobvaraqa-fakturalar uchun tovarning maxsus (qisqartirilgan) (uzunligi 255 ta belgidan uzun emas) nomining mavjudligi; <p>EHA tizimida reestr yozuvini kengaytirish imkoniyatini nazarda tutish (aniq operatsiya / korxonaga / xizmatning xususiyatlarini aks ettirish uchun).</p>

T/r	Muammoning ta'rifi	Ehtimoliy yechim
3.6	МХИК kodini berish algoritmi МХИК reestriga murojaat qilmasdan МХИК kodi to'g'ri kiritilishi / to'g'ri o'qilishini tekshirish imkoniyatini beradigan “nazorat raqami”dan foydalanishni nazarda tutmaydi	МХИК kodlarini generatsiya qilish algoritmiga МХИК reestriga murojaat qilmasdan МХИК kodi to'g'ri kiritilishi / to'g'ri o'qilishini tekshirish imkoniyatini beradigan “nazorat raqami” mexanizmini joriy etish
3.7	Elektron hujjatlarda xato ko'rsatilgan МХИК kodlarini o'zgartirish mexanizmi mavjud emas.	Elektron hujjatlarda МХИК kodlarini avtomatik tarzda o'zgartirish (yangilash) va tuzatish funksionalini yaratish imkoniyatini ko'rib chiqish. 3.4-banddagi instrumentlar zarur.
3.8	Elektron hisobvaraқ-fakturalarni avtomatik tarzda qabul qilingan deb e'tirof etish mexanizmi mavjud emas (10 kundan ko'p muddat oldin xaridorga taqdim etilgan va xaridor tomonidan qabul qilinmagan / rad etilmagan). Bundan hisobvaraқ-fakturalarni bekor qilish (chaqirib olish), МХИК kodiga tuzatish, to'ldirish, o'zgartirish taqdim etish va hokazoning imkoni yo'q.	Xaridor tomonidan avtomatik tarzda qabul qilingan deb e'tirof etilgan elektron hisobvaraқ-fakturalar uchun alohida maqom berilishini nazarda tutish: <ul style="list-style-type: none"> • mazkur maqomni 10 kundan ko'p muddat oldin xaridorga taqdim etilgan va xaridor tomonidan qabul qilinmagan / rad etilmagan hujjatlar uchun berish; • yetkazib beruvchi (jo'natuvchi) va xaridor (oluvchi)ni hisobvaraқ-fakturaning maqomi o'zgarganligi to'g'risida xabardor qilish; • tuzatishlar va qo'shimchalar taqdim etish uchun hisobvaraқ-fakturaning “Xaridor tomonidan qabul qilingan” va “Xaridor tomonidan qabul qilingan deb e'tirof etilgan” maqomini tenglashtirish.
IV. TXKM / EHAning tadbirkorlar bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha muammolar va murakkabliklar		

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
4.1	<p>NKM tizimini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni (23.11.2019-yildagi 943-son VMQga 1-ilova bilan tasdiqlangan) buzish hollari mavjud, aynan:</p> <ul style="list-style-type: none"> tadbirkorlar NKМning muayyan markalarini olishga va (yoki) foydalanilayotgan NKМ modelini “tavsiya qilinganiga” almashtirishga majburlanmoqda (Nizomning 8-bandida tadbirkorlar Davlat reestriga kiritilgan NKМni mustaqil ravishda sotib olishi, shuningdek TXKMni ixtiyoriy tanlash huquqiga egaligi nazarda tutilgan) TXKM tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatishni to‘xtatib qo‘yadi (Nizomning 9-bandida shartnoma shartlari tadbirkor tomonidan bajarilmaganda ham unga ko‘rsatiladigan xizmatlarning TXKM tomonidan to‘xtatib qo‘yilishiga taqiq belgilangan, shartnomaga oid nizoli holatlar esa sud tartibida hal etiladi); FMO to‘lovlar muddati o‘tkazib yuborilganda NKМga xizmat ko‘rsatishni cheklashi mumkin (Nizomning 55-bandida FMO xizmatlari uchun to‘lovlarning muddatida to‘lab berilmasligi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni to‘xtatib qo‘yishga asos bo‘la olmasligi 	<p>NKM tizimini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi Nizom qoidalariga asosan tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat nazoratini kuchaytirish (23.11.2019-yildagi 943-son VMQga 1-ilova bilan tasdiqlangan).</p> <p>Nizom qoidalarini buzmaslik va quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaslik to‘g‘risidagi talablarni hududiy soliq inspeksiyalari, IAM va TXKM xodimlari e‘tiboriga yetkazish:</p> <ul style="list-style-type: none"> tadbirkorlarni NKМning muayyan modellarini sotib olishga majburlash; tadbirkorlarni NKМni almashtirishga majburlash, agar tadbirkor Davlat reestridagi NKМdan foydalanayotgan bo‘lsa; tadbirkorlarni muayyan yetkazib beruvchidan qo‘shimcha NKМ va virtual kassalar sotib olish, shuningdek ularga qo‘shimcha uskunalar sotib olishga majburlash; xizmatlar uchun to‘lov mavjud bo‘lmaganda va (yoki) o‘z vaqtida to‘lanmaganda tadbirkorga / foydalanilayotgan NKМga xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish (to‘lov amalga oshirilmaganligi uchun NKМni o‘chirib qo‘yish faqat sud qaroriga binoan amalga oshiriladi).

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	belgilangan).	
4.2	<p>Tadbirkorlarga davlat tizimlari (FMO, EHFRO) va tashqi tizimlar (TXKM, EHA)ning birikish joyida yuzaga keladigan muammolar bo‘yicha maslahat berishning umumiy mexanizmi mavjud emas:</p> <ul style="list-style-type: none"> TXKM / EHA mutaxassislari tadbirkorlarni MXIK kodlari bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha maslahat yuzasidan DSQ / IAMga yuboradilar, ular o‘z navbatida, tadbirkorlarni TXKM / EHA mutaxassislariga qayta yo‘naltiradilar. <p>Muammoning sabablari: DSQ / IAM mutaxassislari va TXKM / EHA mutaxassislarning MXIK kodlaridan foydalanishda texnik va uslubiy muammolarni hal qilish bo‘yicha o‘zaro hamkorligi mexanizmlarining mavjud emasligi.</p>	<p>DSQ / IAM mutaxassislari va TXKM / EHA mutaxassislarning texnik va uslubiy muammolarni hal qilish bo‘yicha o‘zaro hamkorligi mexanizmini realizatsiya qilish:</p> <ul style="list-style-type: none"> DSQ / IAM mutaxassislarni rasmiylashtirilgan yechimlarga ega bo‘lmagan texnik va uslubiy muammolar to‘g‘risida xabardor qilish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri kanal (masalan, ixtisoslashgan portal va (yoki) telegramm-kanal orqali); aniqlanadigan muammolarni ro‘yxatga olish, monitoring va tahlil qilish bo‘yicha DSQ / IAMning ixtisoslashtirilgan xizmati (3 ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda); murojaatni ko‘rib chiqish natijalarini (texnik yechim, uslubiyatni o‘zgartirish) TXKM / EHA mutaxassislarning e‘tiboriga, shu jumladan manzilli tarqatish va maxsus portal va (yoki) telegramm-kanalda e‘lon qilish orqali yetkazish; yangiliklarni (texnik yechimlar, uslubiyatlar) DSQ / IAMning rasmiy saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e‘lon qilish.
4.3	<p>DSQ axborot tizimlari, serverlari va Ma’lumotlarni qayta ishlash markazi ish qobiliyatining tez-tez buzilishi (nosozliklar) va ulardan foydalanishga ruxsatning mavjud emasligi</p>	<p>Davlat soliq qo‘mitasi axborot tizimlari, serverlari va Ma’lumotlarni qayta ishlash markazi ishini monitoring qilish reglamentini joriy etish, shu jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> DSQ axborot tizimlari, serverlari va Ma’lumotlarni qayta ishlash markazidan foydalanishga ruxsat va ular ishidagi nosozliklarni ro‘yxatga olishni monitoring qilish mexanizmlari;

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
		<ul style="list-style-type: none"> • DSQ axborot resurslaridan foydalanishga ruxsat mavjud emasligi sabablarini tahlil qilish va ular ishining barqarorligini oshirish bo‘yicha choralarni ishlab chiqish tartib-taomili; • DSQ Ma’lumotlarni qayta ishlash markazini muntazam yangilash va texnik qayta jihozlash (aloqa kanallarini kengaytirish, hisoblash quvvatini oshirish, rad etishga bardoshli texnologiyalar va axborot tizimlarini rezervlashni joriy etish); • axborot tizimlarining tez harakat qilishi, unumdorligi va “chidamlilik” zaxirasini ta’minlovchi zamonaviy dasturiy-texnik yechimlarni joriy etish bo‘yicha ishlarni rejalashtirish.
4.4	<p>Aniq markadagi onlayn-NKM yoppasiga ishdan chiqqan taqdirda TXKM va tadbirkorlar harakatining reglamenti (tavsiyalar) mavjud emas.</p> <p>Shunga o‘xshash vaziyatda NKM tizimini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizamning 11-bandida nazarda tutilgan norma ishlaymaydi, sababi zaxiradagi NKM ham ishlaymaydi.</p>	<p>NKM tizimini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizamga (23.11.2019-yildagi 943-son VMQga 1-ilovala bilan tasdiqlangan) quyidagi normalarni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlarni kiritish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • NKMning ish qobiliyati buzilgan taqdirda tadbirkor xaridorlarga maxsus (chek) daftardan kvitansiyalar beradi; • NKMning ish qobiliyati tiklangandan so‘ng berilgan kvitansiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar NKMga kiritiladi; • maxsus (chek) daftar raqamlangan, ip bilan tikilgan va korxonaning muhri va rahbarning imzosi bilan tasdiqlangan, shuningdek soliq organida tasdiqlangan bo‘lishi kerak; • maxsus (chek) daftar soliq organida tasdiqlanadi va tadbirkorga NKM bilan birga beriladi.
4.5	<p>Onlayn-NKM dasturiy ta’minotini yangilash, tovar nomenklaturasini yuritish sozlamasini o‘zgartirish va NKT xotirasida to‘g‘ri MXIK bilan tovarlar reestrini</p>	<p>1. FMOning to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni uzatish va (yoki) qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaydigan NKMning cheklangan funksiyasidan foydalanish imkonini beradigan fiskal ma’lumotlarni FMOga uzatadigan eskirgan bayonnomalarni qo‘llab-quvvatlashni rad</p>

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>yangilashda murakkablik:</p> <ul style="list-style-type: none"> • onlayn-NKM tadbirkorning tasarrufida, shu jumladan olisdagi chakana shoxobchalarida; • tadbirkorlar TXKM mutaxassislariga har doim ham onlayn-NKMdan foydalanishga ruxsat berishmaydi va NKM dasturiy ta’minotini yangilash bo‘yicha harakatlarni mustaqil ravishda bajarishni rad etadilar. 	<p>etishi muddatini belgilash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Masalan, hozirgi vaqtda FMO MXIK kodlari mavjudligi ustidan nazoratni qo‘llab-quvvatlamaydigan, bo‘naklar, kreditlar, vositachilar bo‘yicha ma’lumotlarni uzatish imkonini beruvchi 4-fiskal ma’lumotlarni uzatish bayonnomasini qo‘llab-quvvatlaydi. <p>2. Onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalar xotirasida tovarlar nomenklaturasi va tegishli MXIK kodlarini avtomatik tarzda yangilash mexanizmlarini belgilash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Barcha onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalarga tovarlar nomenklaturasi va tegishli MXIK kodlarini amalda bo‘lishini mustaqil ravishda qo‘llab-quvvatlash imkonini beruvchi bayonnomani (API) ishlab chiqish; • Onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalar xotirasida MXIK kodlarini avtomatik tarzda yangilash imkoniyati (ular o‘zgargan yoki yangilangan taqdirda). <p>3. Tadbirkorlarni onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalar dasturiy ta’minotini yangilashga majburlash mexanizmini belgilash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tadbirkorlarning TXKM mutaxassislarining xizmat ko‘rsatilayotgan onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalardan dasturiy ta’minotni yangilash uchun foydalanishiga ruxsat berishlarini ta’minlash majburiyatini belgilash; • FMOga onlayn-NKM dasturiy ta’minotini yangilashni (TXKM ro‘yxatlari bo‘yicha) rad etayotgan va (yoki) to‘liq bo‘lmagan (MXIK kodlarisiz) fiskal ma’lumotlarni jo‘natayotgan tadbirkorlarning fiskal modullarini o‘chirishga ruxsat berish.

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
4.6	<p>DSQ axborot tizimlari va servislari funksionaliga yangiliklarni loyihalashtirish va rejalashtirish mexanizmlari mavjud emas.</p> <p>Ishlab chiquvchilarga yangi funksionalni ishlab chiqish, sinash va sozlash uchun yetarli miqdorda vaqt berilmayapti, bu nosozliklar va foydalanuvchilar: soliq to‘lovchilar va yakuniy iste’molchilarning noroziligiga olib kelmoqda.</p>	<p>DSQ axborot tizimlari va servislarini rivojlantirishga doir texnik topshiriqlarni ishlab chiqish, baholash va amalga oshirish tartib-taomilini rasmiylashtirish va yuridik jihatdan mustahkamlash (ommaviy resurslar va servislarga taalluqli qismida):</p> <ul style="list-style-type: none"> • muammolar / topshiriqlar va taklif qilinayotgan texnik yechimlarni hujjatlashtirish; • DSQ, IAM vakillari va yangiliklar daxl qiladigan shaxslar: dasturiy ta’minot (NKM, EHA, 1S) ishlab chiquvchilari va tadbirkorlik subyektlari ishtirokida texnik yechimlarni muhokama qilish; • muhokama qilish jarayonida kelib tushgan taklif va mulohazalarni hisobga olgan holda yondashuv / texnik yechimni o‘zgartirish; • DSQ / IAM mutaxassislari tomonidan bazaviy dasturiy yechimlarni tayyorlash; • dasturiy ta’minot (NKM, EHA, 1S) ishlab chiquvchilari uchun dasturiy ta’minot va boshqa texnik yechimlar qayta ishlangunga qadar topshiriqlar qo‘yish; • yangiliklarni cheklangan sondagi tadbirkorlik subyektlari orasida aprobatsiya qilish (tajriba qilish) va tajriba natijalarini hisobga olgan holda yechimlarni qayta ishlash; • rejalashtirilgan yangiliklar to‘g‘risida axborot materiallarini tayyorlash va e’lon qilish hamda ularni tadbirkorlar e’tiboriga yetkazish; • uning davomida TXKM / EHA / 1S tadbirkorlarga yangiliklarni o‘zlashtirishga ko‘maklashadigan o‘tish davri.
4.7	<p>Rag‘batlantirishning mavjud emasligi: DSQ tomonidan joriy etiladigan axborot tizimlari va servislar fiskal samarani ta’minlash maqsadiga ega bo‘lib, ularni joriy etish soliq to‘lovchilar va yakuniy iste’molchilar uchun moliyaviy va ma’muriy</p>	<p>Yaratilayotgan axborot tizimlari negizida tadbirkorlar va fuqarolar uchun qo‘shimcha raqamli servislarni majburiy rivojlantirishni rasmiylashtirish va yuridik jihatdan mustahkamlash. Masalan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • uy xo‘jaliklarining har oyda amalga oshiradigan xarajatlari to‘g‘risida statistik

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>xarajatlarga sabab bo‘ladi.</p> <p>Bunda tadbirkorlar va fuqarolar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan raqamli servislar deyarli rivojlantirilmayotir.</p>	<p>ma’lumotlarni shakllantirish va e’lon qilish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • “SOLIQ” ilovasi foydalanuvchisining tanlangan davr uchun iste’mol xarajatlarini tahlil qilish imkoniyati (keshbek uchun ro‘yxatdan o‘tkazilgan cheklar bo‘yicha); • onlayn chekni qidirish, ko‘rish va chop etish imkoniyati (xarajatlarni tahlil qilish, tovarlarni qaytarish va hokazo uchun).
<p>V. TXKM / EHAning DSQ / IAM mutaxassislari bilan o‘zaro hamkorligi bo‘yicha muammolar va murakkabliklar</p>		
5.1	<p>Soliq ma’muriyatchiligini rivojlantirish bo‘yicha umumiy konsepsiya va chora-tadbirlar rejasi (“yo‘l xaritasi”)ning mavjud emasligi.</p> <p>Qarorlarni o‘z-o‘zidan qabul qilish va “strategik qarash”ning mavjud emasligi quyidagilarga olib keladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • axborot tizimlarining maqsadli arxitekturasini tuzish imkonining yo‘qligi; • dasturiy ta’minotni muntazam qayta ishlash zarurati; • vaqtinchalik yechimlar (“tayanch”)ni ishlab chiqish; 	<p>Soliq ma’muriyatchiligi tizimini raqamlashtirish bo‘yicha umumiy konsepsiya va chora-tadbirlar rejasi (“yo‘l xaritasi”)ni ishlab chiqish, shu jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • raqamli tizimlarni rivojlantirish bo‘yicha vazifalar va bosqichlarni belgilash (onlayn-NKM, EHA, Ye-Aktiv, MXIK reestri, raqamli markirovkalash, Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti, boshqa axborot tizimlari va resurslari); • ko‘rsatilgan tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning o‘zaro hamkorligi tartibini belgilash; • professional hamjamiyatning (dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilari, TXKM / EHA / IS mutaxassislari, buxgalterlar va hokazo) soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish rejasini shakllantirishdagi rolini aniqlash; • soliq to‘lovchilar va yakuniy iste’molchilarning tegishli raqamli instrumentlardan foydalanishdagi rolini aniqlash, shuningdek jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish.

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<ul style="list-style-type: none"> tadbirkorlar uchun raqamli ekotizimlarni shakllantirish va qo‘shimcha servislar ishlab chiqishda murakkabliklar. <p>Ko‘rsatilganlar tadbirkorlar uchun TXKM / EHA xizmatlari qiymatining oshishiga olib keladi, bu tadbirkorlarning noroziligiga sabab bo‘ladi va iste’molchilar uchun tovarlar va xizmatlar qiymatiga ta’sir ko‘rsatadi.</p>	<p>Konsepsiyani ishlab chiqishda:</p> <ul style="list-style-type: none"> strategik hujjatlarni ishlab chiqish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb qilish (konsalting, biznes-tahlil, soliq maslahati va hokazo); boshqa mamlakatlardagi soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish tajribasini hisobga olish; soha mutaxassislari va professional hamjamiyatdan qaytar aloqa olish.
5.2	<p>MXIK reestri funksionalini tez-tez o‘zgartirish onlayn-NKM / EHA tizimi / boshqa dasturiy ta’minotning muntazam qayta ishlanishini talab qiladi.</p> <p>Ishlab chiquvchilarga o‘zgartirishlarni ishlab chiqish, sinash va sozlash uchun yetarli miqdorda vaqt berilmayapti, bu nosozliklar va tadbirkorlar va yakuniy iste’molchilarning noroziligiga olib kelmoqda.</p>	<p>1. Manfaatdor shaxslarni rejalashtirilayotgan yangiliklar va tegishli normativ-texnik hujjatlarning e’lon qilinishi to‘g‘risida xabardor qilish reglamentini rasmiylashtirish va yuridik jihatdan mustahkamlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> o‘zaro hamkorlik qilish va DSQ/FMO/EHFRO ga ma’lumotlarni jo‘natish bayonnomalarini e’lon qilish tartibi va muddatlari (bayonnomalarga o‘zgartirishlar kiritish); manfaatdor shaxslarni Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor qilish; manfaatdor shaxslarni DSQning rasmiy saytida, sohaga doir telegramm-kanallarda va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda xabardor qilish; o‘zgartirishlarni joriy etish muddatini manfaatdor shaxslar xabardor qilingan va tegishli normativ-texnik hujjat e’lon qilingan sanadan boshlab hisoblash. <p>2. Yangiliklarni joriy etishning eng kam muddatlarini rasmiylashtirish va yuridik jihatdan mustahkamlash (NKM ishlab chiquvchilari, TXKM, EHA, 1S tomonidan):</p>

T/r	Muammoning ta'rifi	Ehtimoliy yechim
		<ul style="list-style-type: none"> • dasturiy ta'minotni yangi talablarga muvofiq qayta ishlash (kamida 2 oy tavsiya qilinadi); • yangi funksionalni sinash, sozlash va bozor ishtirokchilariga yetkazib berish (yetkazish) (1-3 oy tavsiya qilinadi); • foydalanuvchilarni (soliq to'lovchilarni) onlayn-NKM / EHA bilan ishlashga qo'yiladigan yangi talablar to'g'risida xabardor qilish (1 oy talab qilinadi).
5.3	МХИК реестрини yaratish, uning ma'muriyatchiligi va rivojlantirish jarayonlarini uslubiy jihatdan kuzatib borishni amalga oshiruvchi “Vakolatlar markazi” mavjud emas.	“Vakolatlar markazi”ni shakllantirish va uning vazifalari jumlasiga quyidagilarni kiritish: <ul style="list-style-type: none"> • kelib tushayotgan murojaatlarni har kuni tahlil qilish va onlayn-NKM va EHA foydalanuvchilarida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish yo'llarini izlash; • muammolarni muhokama qilish va ularni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish uchun soha tashkilotlari (NKM ishlab chiquvchilari, TXKM, EHA, IS) xodimlari bilan muntazam uchrashish; • soha (tarmoq) hokimiyat organlari, tashkilotlari va muassasalarining mutaxassislari bilan tarmoq xususiyatlarini hisobga olish maqsadida o'zaro hamkorlik qilish; • NKM ishlab chiquvchilari, TXKM, EHA operatorlarini joriy (tezkor) masalalarni hal qilishda tezkor, uslubiy va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash.
5.4	TXKM orasida o'tkaziladigan noto'g'ri MXIK kodlari bilan onlayn cheklarni shakllantirish to'g'risida axborot tarqatish amaliy qiymatga ega emas, sababi: <ul style="list-style-type: none"> • tarqatilgan axborotlarda onlayn cheklarni 	IAM tomonidan TXKM orasida o'tkaziladigan axborot tarqatishda ma'lumotlarni batafsillashtirish, shu jumladan quyidagi ma'lumotlarni aks ettirish: <ul style="list-style-type: none"> • noto'g'ri MXIK kodlari bilan onlayn cheklarni shakllantiradigan onlayn-NKM (fiskal modul)ning raqami; • onlayn cheklarni shakllantirishda foydalanilgan noto'g'ri MXIK kodlari;

T/r	Muammoning ta’rifi	Ehtimoliy yechim
	<p>rasmiylashtirishda qanaqa noto‘g‘ri MXIK kodlaridan foydalanilishi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emas.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • tegishli tovar (mahsulot, xizmat) uchun foydalanish lozim bo‘lgan to‘g‘ri MXIK kodi.
5.5	<p>Tadbirkorlarni MXIK reestrtdagi o‘zgartirishlar va onlayn cheklar va boshqa elektron hujjatlarni rasmiylashtirishda potensial qoidabuzarliklar to‘g‘risida xabardor qilish mexanizmlari mavjud emas.</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Xatolar va nosozliklar to‘g‘risidagi ma’lumotni har kuni Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga (soliq.uz) jo‘natishni nazarda tutish. 2. Tadbirkorlarni u yoki boshqa o‘zgartirishlar va xatolar to‘g‘risida xabardor qiladigan telegramm-botni ishlab chiqish (3.3-bandga qarang). 3. Qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni DSQning nazorat tizimlariga (tahlila-tahlil va hokazo) avtomatik tarzda jo‘natishni nazarda tutish.